



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамишнур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



TURLI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA KUZGI YUMSHOQ BUG'DOY NAVLARINING DON NAMLIGIGA ASOSLANGAN O'RIM MUDDATINING IQTISODIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI

Ishankulova Gavxar Norkulovna

ВЛИЯНИЕ СРОКОВ УБОРКИ, ОСНОВАННЫХ НА ВЛАЖНОСТИ ЗЕРНА ОЗИМЫХ СОРТОВ МЯГКОЙ ПШЕНИЦЫ В РАЗЛИЧНЫХ ПОЧВЕННО-КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ, НА ПОКАЗАТЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Ишанкулова Гавхар Норкуловна

THE EFFECT OF HARVESTING TIME BASED ON GRAIN MOISTURE OF WINTER SOFT WHEAT VARIETIES UNDER DIFFERENT SOIL AND CLIMATIC CONDITIONS ON ECONOMIC EFFICIENCY INDICATORS

Ishankulova Gavxar Norkulovna

Received: May 8, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada turli tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirilgan kuzgi yumshoq bug'doy navlarida don namligiga asoslangan o'rim muddatlarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot davomida don namligining turli darajalarida amalga oshirilgan o'rim-terim natijasida hosildorlik, don sifati, ishlab chiqarish xarajatlari, sof foyda va rentabellik darajasi tahlil qilindi. Olingan natijalar don namligiga mos ravishda optimal o'rim muddatini belgilash hosil yo'qotishlarini kamaytirishi, mahsulot sifatini yaxshilashi hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ko'rsatdi. Turli tuproq-iqlim sharoitlarida kuzgi yumshoq bug'doy yetishtirishda don namligiga asoslangan o'rim muddatlarini tanlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kuzgi yumshoq bug'doy, tuproq-iqlim sharoiti, don namligi, o'rim muddati, hosildorlik, don sifati, iqtisodiy samaradorlik, sof foyda, rentabellik, hosil yo'qotishlari.

Аннотация. В данной статье изучено влияние сроков уборки, основанных на влажности зерна, на показатели экономической эффективности сортов озимой мягкой пшеницы, выращиваемых в различных почвенно-климатических условиях. В ходе исследований проведен анализ урожайности, качества зерна, производственных затрат, чистой прибыли и уровня рентабельности при различных показателях влажности зерна в период уборки. Полученные результаты показали, что определение оптимальных сроков уборки с учетом влажности зерна способствует снижению потерь урожая, улучшению качества продукции и повышению экономической эффективности производства. Разработаны практические рекомендации по выбору оптимальных сроков уборки озимой мягкой пшеницы в различных почвенно-климатических условиях.

Ключевые слова: озимая мягкая пшеница, почвенно-климатические условия, влажность зерна, сроки уборки, урожайность, качество зерна, экономическая эффективность, чистая прибыль, рентабельность, потери урожая.



Abstract. This article investigates the impact of harvesting dates based on grain moisture content on the economic efficiency indicators of winter soft wheat varieties grown under different soil and climatic conditions. The study analyzed grain yield, grain quality, production costs, net profit, and profitability at different grain moisture levels during harvesting. The results demonstrated that determining the optimal harvesting time according to grain moisture content reduces yield losses, improves grain quality, and enhances economic efficiency. Practical recommendations were developed for selecting optimal harvesting periods for winter soft wheat varieties under various soil and climatic conditions.

Keywords: winter soft wheat, soil and climatic conditions, grain moisture content, harvesting time, grain yield, grain quality, economic efficiency, net profit, profitability, yield losses.

KIRISH

Kuzgi yumshoq bug'doy navlarini turli mintaqada yetishtirilishida sarf-xarajatlar va donning xarid narxi o'zgarmagn holda, don hosildorligining donning namligini hisobga olgan holda o'rim-yig'im agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish hamda navning irsiy belgilari ta'sirida don hosildorligining o'zgarishi ta'sirida rentabellikka ta'sir ko'rsatishi isbotlangan.

Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyatining turli tuproq-iqlim sharoitlarida kuzgi yumshoq bug'doy navlarining hosildorligi va texnologik sifat ko'rsatkichlariga o'rim muddatlarining tasirini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tajriba maydonidagi kuzgi yumshoq bug'doy navlarining hosil strukturasi aniqlash uchun, hosilni yig'ishtirib olishdan oldin, har bir variant va takrorlashlarda belgilab qo'yilgan 1 m² dagi o'simliklardan 100 tup namunalar olindi va don shishasimonligi va naturasi GOST-9353-84, kleykovina miqdori GOST-13586-68 talablari bo'yicha; hosildorlikdondagi namlik standart (14%) holatga keltirilib, 100% tozalikda aniqlangan. Dala tajribalarida variantlar va qaytariqlar bo'yicha olingan don hosili ko'rsatkichlari B.A. Dospexov [1985] bo'yicha statistik qayta ishlanib, dispersion tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Heyne (1987) tomonidan tahrir qilingan "Wheat and Wheat Improvement" asarida kuzgi bug'doyning biologik xususiyatlari hamda hosilni yig'ishtirish texnologiyasi batafsil yoritilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, don namligi 18–20 % atrofida bo'lganda o'rimni boshlash hosilning to'kilishi va mexanik yo'qotishlarning oldini oladi. Tadqiqotlarda o'rimning kechikishi natijasida donning tabiiy massasi va sifat ko'rsatkichlari pasayishi qayd etilgan. Natijada yalpi hosil va iqtisodiy foyda kamayadi [1]. Panozzo va Eagles (2000) tomonidan Avstraliya sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlarda bug'doy donining sifat ko'rsatkichlari o'rim muddatiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan. Tadqiqotchilar don namligi 14–16 % bo'lganda yig'ib olingan hosilda donning shishasimonligi, oqsil miqdori va texnologik sifati yuqori bo'lishini ta'kidlaydilar. O'rimning ortiqcha kechiktirilishi esa mexanik shikastlanishlar va don sinuvchanligini kuchaytirib, iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi [2]. FAO tomonidan chop etilgan bug'doy yetishtirish bo'yicha tavsiyalarda hosilni yig'ishtirishda don namligi 14–18 % oralig'ida bo'lishi maqbul deb ko'rsatilgan. Hisobotlarga ko'ra, hosilni kech yig'ib olish natijasida ayrim hududlarda 5–15 % gacha hosil yo'qotilishi kuzatiladi. Shu bilan birga, namligi yuqori bo'lgan donni yig'ishtirish qo'shimcha quritish xarajatlarini talab qilsa-

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

da, hosilning to'kilib ketishidan ko'riladigan zarar bilan taqqoslaganda iqtisodiy jihatdan foydaliroq bo'lishi mumkin [3]. Zhuchenko (2004) Rossiyaning turli agroiklim mintaqalarida kuzgi bug'doy navlari ustida olib borgan tadqiqotlarida don namligi 16–18 % bo'lgan davrda yig'ishtirish eng maqbul natija berishini aniqlagan. Muallifning fikricha, qurg'oqchil va qora tuproqli hududlarda o'rimning kechikishi boshqadagi donlarning to'kilishi va hosilning kamayishiga sabab bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi va rentabellik darajasining pasayishiga olib keladi [4].

CIMMYT tadqiqotlarida bug'doy navlarining hosildorligi va yig'ishtirish muddatlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, don namligi 15–17 % bo'lganda kombayn yordamida yig'ishtirish hosil yo'qotishlarini kamaytiradi hamda don sifatini saqlab qoladi. Natijada mahsulotning bozor qiymati oshib, sof foyda miqdori ko'payadi [5].

O'zbekiston olimlari tomonidan sug'oriladigan bo'z tuproqlar sharoitida olib borilgan tadqiqotlarda ham o'rim muddatining iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta'siri aniqlangan. Tadqiqotlar natijasida don namligi 16–18 % bo'lgan davrda yig'ib olingan hosilda hosildorlik va don sifati yuqori bo'lishi, o'rimning 7–10 kun kechikishi esa hosil yo'qotishlari hamda rentabellikning pasayishiga olib kelishi qayd etilgan [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Kasbi tumanida kuzgi yumshoq bug'doy navlarini yetishtirishdagi sarf-xarajatlar 7178,7 so'mni tashkil etgani holda, 1-muddatdagi o'rimda don hosildorligi Krasnodarskaya-99 navida 45,5 s/ga ni tashkil etdi va rentabellik manfiy ko'rsatkichda ifodalandi. Shuningdek, o'rganilgan boshqa navlarda don hosildorligi 46,6–49,7 s/ga ni tashkil etib, rentabellik darajasi 0,5–7,3% ni tashkil etdi. Tadqiqotlarimizda eng yuqori don hosildorligi 2-muddatdagi o'rimda kuzatilgani va mos ravishda rentabellik ko'rsatkichi eng yuqori darajada bo'lishini isbotladi.

Navlar bo'yicha tahlil qilinganda, mahalliy sharoitda yaratilgan Yaksart navida 53,3 s/ga, G'ozg'on navida 54,2 s/ga, Turkiston navida 57,3 s/ga ni tashkil etib, mos ravishda rentabellik ko'rsatkichi 15,1%, 17,1% va 23,7% ni tashkil etdi.

3-muddatdagi o'rimda Turkiston navidan 49,5 s/ga hosil olinib, rentabellik ko'rsatkichi 6,9% ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa navlarda hosildorlikning past (40,2–45,9 s/ga) bo'lishi natijasida rentabellik manfiy ko'rsatkichga ega bo'ldi. Shu tariqa, 4-muddatdagi o'rimda ham hosildorlikning keskin tushishi rentabellikning pasayib ketishiga olib keldi. Qarshi tumanida ham kuzgi yumshoq bug'doy navlarini yetishtirishdagi sarf-xarajatlar 7178,7 so'mni tashkil etgani holda, 1-muddatdagi o'rimda don hosildorligi



54,6-64,5 s/ga ni, rentabellik ko'rsatkichi esa 17,8-39,3% ni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Cho'l hududida kuzgi yumshoq bug'doy navlarini donning namligiga asoslangan o'rim muddatlari ta'sirida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'zgarishi

T/r	Don namligiga ko'ra o'rim muddatlari	Nav nomi	Hosil dorlik, s/ga	Xarajat	1 kg don narxi (3-sinf), sum	Yalpi daromad, ming sum	Sof daromad, ming sum	1 kg don tannarxi, sum	Rentabellik darajasi, %
1	1-	Yaksart	46,6	7178,7	1550,0	7217,8	39,1	1541,6	0,5
2	muddatdagi	Krasnodarskaya-99	45,5	7178,7	1550,0	7049,1	-129,6	1578,5	-1,8
3	o'rim, don	Selyanka	48,9	7178,7	1550,0	7579,5	400,8	1468,0	5,6
4	namligi 20-	G'ozg'on	47,6	7178,7	1550,0	7379,7	201,0	1507,8	2,8
5	22%	Turkiston	49,7	7178,7	1550,0	7705,2	526,5	1444,1	7,3
6	2-	Yaksart	53,3	7178,7	1550,0	8264,9	1086,3	1346,3	15,1
7	muddatdagi	Krasnodarskaya-99	49,2	7178,7	1550,0	7629,4	450,8	1458,4	6,3
8	o'rim, don	Selyanka	51,1	7178,7	1550,0	7923,9	745,3	1404,2	10,4
9	namligi 14-	G'ozg'on	54,2	7178,7	1550,0	8402,7	1224,0	1324,2	17,1
10	16%	Turkiston	57,3	7178,7	1550,0	8881,5	1702,8	1252,8	23,7
11	3-	Yaksart	44,3	7178,7	1550,0	6859,6	-319,1	1622,1	-4,4
12	muddatdagi	Krasnodarskaya-99	40,2	7178,7	1550,0	6236,2	-942,5	1784,3	-13,1
13	o'rim, don	Selyanka	41,5	7178,7	1550,0	6429,1	-749,6	1730,7	-10,4
14	namligi 10-	G'ozg'on	45,9	7178,7	1550,0	7121,4	-57,3	1562,5	-0,8
15	12%	Turkiston	49,5	7178,7	1550,0	7675,9	497,3	1449,6	6,9
16	4-	Yaksart	37,4	7178,7	1550,0	5790,1	-1388,6	1921,7	-19,3
17	muddatdagi	Krasnodarskaya-99	32,2	7178,7	1550,0	4996,2	-2182,5	2227,1	-30,4
18	o'rim, don	Selyanka	35,6	7178,7	1550,0	5514,6	-1664,1	2017,7	-23,2
19	namligi 8-	G'ozg'on	39,8	7178,7	1550,0	6175,9	-1002,8	1801,7	-14,0
20	9%	Turkiston	41,5	7178,7	1550,0	6435,9	-742,7	1728,9	-10,3

Qarshi tumanida ham kuzgi yumshoq bug'doy navlarini yetishtirishdagi sarf-xarajatlar 7178,7 so'mni tashkil etgani holda, 1-muddatdagi o'rimda don hosildorligi 54,6-64,5 s/ga ni, rentabellik ko'rsatkichi esa 17,8-39,3% ni tashkil etdi (1-jadval).

Shuningdek, o'rganilgan navlar bo'yicha tahlil qilinganda, eng kam hosildorlik Krasnodarskaya-99 navida (54,6 s/ga) va Turkiston navida (57,1 s/ga) kuzatilib, mos ravishda rentabellik ko'rsatkichi 17,8-23,2% ni tashkil etdi. Tadqiqotlarimizda eng yuqori don hosildorligi 2-muddatdagi o'rimda (don namligi 14-16%) kuzatilgani va mos ravishda rentabellik ko'rsatkichi eng yuqori darajada bo'lishini isbotladi.

Navlar bo'yicha tahlil qilinganda, mahalliy sharoitda yaratilgan Yaksart navida 66,7 s/ga va

G'ozg'on navida 69,3 s/ga ni tashkil etib, mos ravishda rentabellik ko'rsatkichi 43,9% va 49,7% ni tashkil etdi. 3-muddatdagi o'rimda esa 1- va 2-muddatdagi o'rimdagiga nisbatan hosildorlik (50,9-60,5 s/ga) pasayishi natijasida rentabellik darajasi (9,9-30,7%) pasayishi kuzatildi. Bu muddatdagi o'rimda eng kam hosildorlik va mos ravishda rentabellik Krasnodarskaya-99 navida kuzatilgan bo'lsa, eng baland hosildorlik va rentabellik ko'rsatkichi G'ozg'on navida aniqlangan. Shuningdek, 4-muddatdagi o'rimda ham hosildorlikning keskin tushishi rentabellikning pasayib ketishiga olib keldi. Navlar bo'yicha o'rganilganda, Krasnodarskaya-99 navida don hosildorligi 45,3 s/ga bo'lib, rentabellik darajasi manfiy (-2,2%) bo'lganligi kuzatildi.

Cho'l oldi hududi hududida kuzgi yumshoq bug'doy navlarini donning namligiga asoslangan muddatdagi o'rim ta'sirida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'zgarishi

T/r	Don namligiga ko'ra o'rim muddatlari	Nav nomi	Don hosildor -ligi,	Sarf-xarajat, so'm	1 kg don narxi (3-sinf), so'm	Yalpi daromad , so'm	Sof daromad , so'm	1 kg don tannarxi , so'm	Rentabellik darajasi, %
1	1-muddatdagi o'rim, don namligi	Yaksart	62,4	7178,7	1550,0	9672,0	2493,3	1150,4	34,7
2		Krasnodarskaya-99	54,6	7178,7	1550,0	8456,1	1277,4	1315,8	17,8
3		Selyanka	60,4	7178,7	1550,0	9358,6	2179,9	1189,0	30,4
4		G'ozg'on	64,5	7178,7	1550,0	10000,9	2822,3	1112,6	39,3
5		Turkiston	57,1	7178,7	1550,0	8843,6	1664,9	1258,2	23,2
6	2-muddatdagi o'rim, don namligi 14-16%	Yaksart	66,7	7178,7	1550,0	10333,3	3154,6	1076,8	43,9
7		Krasnodarskaya-99	57,3	7178,7	1550,0	8879,8	1701,1	1253,1	23,7
8		Selyanka	63,8	7178,7	1550,0	9887,3	2708,6	1125,4	37,7
9		G'ozg'on	69,3	7178,7	1550,0	10743,2	3564,5	1035,7	49,7
10		Turkiston	62,1	7178,7	1550,0	9623,8	2445,1	1156,2	34,1
11	3-muddatdagi o'rim, don namligi 10-12%	Yaksart	59,8	7178,7	1550,0	9272,4	2093,8	1200,0	29,2
12		Krasnodarskaya-99	50,9	7178,7	1550,0	7891,2	712,5	1410,0	9,9
13		Selyanka	57,4	7178,7	1550,0	8903,9	1725,2	1249,7	24,0
14		G'ozg'on	60,5	7178,7	1550,0	9382,7	2204,0	1185,9	30,7
15		Turkiston	55,6	7178,7	1550,0	8624,9	1446,2	1290,1	20,1
16	4-muddatdagi o'rim, don namligi 8-9%	Yaksart	53,7	7178,7	1550,0	8326,9	1148,3	1336,3	16,0
17		Krasnodarskaya-99	45,3	7178,7	1550,0	7023,2	-155,5	1584,3	-2,2
18		Selyanka	52,9	7178,7	1550,0	8206,4	1027,7	1355,9	14,3
19		G'ozg'on	55,7	7178,7	1550,0	8638,7	1460,0	1288,0	20,3
20		Turkiston	51,2	7178,7	1550,0	7942,9	764,2	1400,9	10,6

Tog' oldi hududida ham kuzgi yumshoq bug'doy navlarini yetishtirishdagi sarf-xarajatlar 7178,7 so'mni tashkil etgani holda, 1-muddatdagi o'rimda don hosildorligi 60,9-68,5 s/ga ni, rentabellik ko'rsatkichi esa 34,8-47,9% ni tashkil etdi (2-jadval). Tadqiqotlarda

iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganilgan navlar bo'yicha tahlil qilinganda, eng kam hosildorlik Turkiston navida (60,9 s/ga) va Yaksart navida (62,4 s/ga) kuzatilib, mos ravishda rentabellik ko'rsatkichi 31,4-34,8% ni tashkil etdi.

Tog' oldi hududlarida hududida kuzgi yumshoq bug'doy navlarini donning namligiga asoslangan muddatdagi o'rim ta'sirida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'zgarishi

T/r	Don namligiga ko'ra o'rim muddatlari	Nav nomi	Don hosildor -ligi, s/ga	Sarf-xarajat, so'm	1 kg don narxi (3-sinf), so'm	Yalpi daromad, so'm	Sof daromad, so'm	1 kg don tannarxi, so'm	Rentabellik darajasi, %
1	1-muddatdagi o'rim, don namligi	Yaksart	62,4	7178,7	1550,0	9677,2	2498,5	1149,8	34,8
2		Krasnodarskaya-99	68,5	7178,7	1550,0	10617,5	3438,8	1048,0	47,9
3		Selyanka	66,9	7178,7	1550,0	10366,1	3187,4	1073,4	44,4
4		G'ozg'on	64,7	7178,7	1550,0	10021,6	2842,9	1110,3	39,6
5		Turkiston	60,9	7178,7	1550,0	9436,1	2257,4	1179,2	31,4
6	2-muddatdagi o'rim, don namligi 14-16%	Yaksart	68,5	7178,7	1550,0	10610,6	3431,9	1048,7	47,8
7		Krasnodarskaya-99	72,4	7178,7	1550,0	11218,6	4039,9	991,8	56,3
8		Selyanka	70,3	7178,7	1550,0	10896,5	3717,8	1021,1	51,8
9		G'ozg'on	69,6	7178,7	1550,0	10791,4	3612,8	1031,1	50,3
10		Turkiston	64,4	7178,7	1550,0	9987,2	2808,5	1114,1	39,1
11	3-muddatdagi o'rim, don namligi 10-12%	Yaksart	60,7	7178,7	1550,0	9408,5	2229,8	1182,6	31,1
12		Krasnodarskaya-99	65,2	7178,7	1550,0	10107,7	2929,0	1100,8	40,8
13		Selyanka	63,6	7178,7	1550,0	9856,3	2677,6	1128,9	37,3
14		G'ozg'on	62,4	7178,7	1550,0	9670,3	2491,6	1150,6	34,7
15		Turkiston	58,7	7178,7	1550,0	9105,4	1926,7	1222,0	26,8
16	4-muddatdagi o'rim, don namligi 8-9%	Yaksart	57,1	7178,7	1550,0	8850,5	1671,8	1257,2	23,3
17		Krasnodarskaya-99	56,3	7178,7	1550,0	8728,2	1549,5	1274,8	21,6
18		Selyanka	53,7	7178,7	1550,0	8321,8	1143,1	1337,1	15,9
19		G'ozg'on	57,1	7178,7	1550,0	8847,1	1668,4	1257,7	23,2
20		Turkiston	50,3	7178,7	1550,0	7803,4	624,7	1425,9	8,7



Tog' oldi hududlarda ham eng yuqori don hosildorligi 2-muddatdagi o'rimda kuzatilgani va mos ravishda rentabellik ko'rsatkichi eng yuqori darajada bo'lishini isbotladi (3-jadval).

Navlar bo'yicha tahlil qilinganda, Krasnodar seleksiyasiga mansub Krasnodarskaya-99 navida 72,4 s/ga va Selyanka navida 70,3 s/ga ni tashkil etib, mos ravishda rentabellik ko'rsatkichi 56,3% va 51,8% ni tashkil etdi. 3-muddatdagi o'rimda 1-o'rim va 2-muddatdagi o'rimga nisbatan hosildorlik (58,7-65,2 s/ga) pasayishi natijasida rentabellik darajasi (26,8-40,8%) pasayishi kuzatildi. Bu muddatdagi o'rimda eng kam hosildorlik va mos ravishda rentabellik Turkiston navida kuzatilgan bo'lsa, eng baland hosildorlik va rentabellik ko'rsatkichi Krasnodarskaya-99 navida aniqlangan. Shuningdek, 4-muddatdagi o'rimda ham hosildorlikning tushishi rentabellikning pasayib ketishiga olib keldi. Navlar bo'yicha o'rganilganda, Turkiston navida don hosildorligi 50,3 s/ga bo'lib, rentabellik darajasi manfiy 8,7% bo'lishi aniqlangan. Tadqiqot o'tkazilgan hududlar bo'yicha don hosildorligi, sarf xarajatlar hamda donning xarid narxiga ko'ra turli hududlarda kuzgi yumshoq bug'doy navlarini yetishtirishda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'zgarishi kuzatildi. Jumladan, hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, viloyatning cho'l (Kasbi) hududida hosildorlikning o'rta va tog' oldi hududlariga nisbatan past bo'lishi hisobiga rentabellik darajasi past bo'lishi aniqlangan. Hududdagi navlar bo'yicha esa Turkiston navini yetishtirishda, navning issiqlikka chidamlilik xususiyati yuqoriligi evaziga hosildorlikning boshqa navlarga nisbatan yuqori bo'lishi hamda rentabellik ko'rsatkichi yuqori bo'lishi aniqlangan. Viloyatning o'rta (Qarshi) hududida hosildorlikning cho'l hududiga nisbatan baland va tog' oldi hududiga nisbatan past bo'lishi hisobiga rentabellik darajasi mos ravishda bo'lishi aniqlangan. Hududdagi navlar bo'yicha esa G'ozg'on navini yetishtirishda hosildorlikning boshqa navlarga nisbatan yuqori bo'lishi hamda rentabellik ko'rsatkichi yuqori bo'lishi aniqlangan. Tog' oldi (Shahrisabz) hududida hosildorlikning cho'l va o'rta hududlarga nisbatan baland bo'lishi hisobiga rentabellik darajasi yuqori bo'lishi aniqlangan. Hududdagi navlar bo'yicha esa Krasnodarskaya-99 navini yetishtirishda

hosildorlikning boshqa navlarga nisbatan yuqori bo'lishi hamda rentabellik ko'rsatkichi yuqori bo'lishi aniqlangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kuzgi bug'doy navlarini yetishtirishda navlarning iqtisodiy samaradorligi donning namligi 14-16%, ya'ni to'liq pishib yetilgan davrda o'rib olinganda yuqori bo'lgan. Navlar bo'yicha esa cho'l hududida Turkiston navida, cho'l oldi hududida G'ozg'on navida va tog' oldi hududida Krasnodarskaya-99 navida rentabellik darajasi yuqori bo'lgan.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Ishankulova Gavxar Norkulovna QarDTU dotsenti, q.x.f.f.d (PhD) / Ишанкулова Гавхар Норкуловна доцент Каршинского государственного технического университета, доктор философии по сельскохозяйственным наукам (PhD) / Ishankulova Gavkhar Norkulovna Associate Professor of Karshi State Technical University, Doctor of Philosophy in Agricultural Sciences (PhD)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Heyne E.G. (Ed.). Wheat and Wheat Improvement. – Madison: American Society of Agronomy, 1987. – 765 p.
 2. Panozzo J.E., Eagles H.A. Cultivar and environmental effects on quality characters in wheat // Australian Journal of Agricultural Research. – 2000. – Vol. 51. – P. 629–636.
 3. FAO. Wheat Production Guide. – Rome: Food and Agriculture Organization, 2018. – 124 p.
 4. Zhuchenko A.A. Adaptive Crop Production. – Moscow: Agrorus, 2004. – 432 p.
 5. CIMMYT. Wheat Program Annual Report. – Mexico City: CIMMYT, 2015. – 98 p.
- Muminov R. va boshqalar. Sug'oriladigan yer sharoitida kuzgi bug'doy yetishtirish texnologiyasi. – Toshkent, 2020. – 156 b.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz